



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИ ҲУЗУРИДАГИ
ДИН ИШЛАРИ БЎЙИЧА ҚўМИТА





ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТ СТРАТЕГИЯСИ ДАСТУРИ ИЖРОСИ БЎЙИЧА МАЪЛУМОТ


Ўзбекистон Республикасида 16 диний конфессияга мансуб 2 331 та диний ташкилот фаолият олиб бормоқда.

Фуқароларнинг **95%**дан зиёди ислом динига эътиқод қилади, **3,5%**га яқин фуқаролар православ динига мансуб бўлиб, қолганларини бошқа конфессия вакиллари ташкил этади.

Бугунги кунда Ўзбекистон Республикасида **2140** та исломий, **174** таси христиан ташкилотлар, **8** таси яҳудий, **6** таси баҳоий жамоалари, биттадан Кришнани англаш жамияти ва будда ибодатхонаси мавжуддир. Бундан ташқари, республикада конфессиялараро Библия жамияти ҳам фаолият юритмоқда.



DINIY ERKINLIK JARAYONLARI



Bugungi kunda O'zbekistonda diniy bayramlar keng nishonlanmoqda, xususan, musulmonlar tomonidan Ramazon va Qurbon hayitlari, xristianlar tomonidan Pasxa va Rojdestvo bayramlari, yahudiylar, bahoiylar, krishnachilar va buddaviylar dinlari vakillari uchun diniy aqidalarida qayd etilgan bayramlarning markazlashgan holda tashkil etilishi va o'tkazilishi ta'minlanib, ularda ishtirok etayotgan fuqarolarning miqdori yil sayin ortib bormoqda.



O'ZBEKISTONDA DINIY ERKINLIK

O'zbekiston so'nggi
20 yilda AQSH
"alohida tashvish
tug'diradigan
davlatlar" ro'yxatidan
chiqargan ikkinchi
mamlakat bo'ldi.

Prezidenti Shavkat
Mirziyoev taklifiga ko'ra,
2018 yil 12 dekabrda
Birlashgan Millatlar
Tashkiloti Bosh
Assambleyasining
73-sessiyasida "Ma'rifat
va diniy bag'rikenglik"
rezolyutsiyasini
qabul qilindi.



2021 yilning 5 iyul
kuni O'zbekiston
Respublikasining
"Vijdon erkinligi va
diniy tashkilotlar
to'g'risida"gi Qonuni
qabul qilindi.



FUQAROLARGA IBODATLARI UCHUN YARATILGAN SHAROITLARNING YIL SAYIN ORTIB BORAYOTGANLIGI

Har bir din vakili uchun muqaddas bo'lgan diniy ziyorat amallarini bajarishda ham tegishli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Jumladan, 2020 va 2021 yillar davomida koronavirus kasalligi tufayli to'xtab qolgan Umra ziyorati **2022 yilning 22 yanvar** kuni-dan qayta tiklanib, bugungi kunga qadar jami **23 mingga** yaqin yurtdoshlarimizning Saudiya Arabistoniga ziyoratlarini tashkil etishga imkon yaratildi.



Umuman olganda, **2017-2019** yillarda Haj safarini jami **21 ming**dan ziyod fuqaro va **2017-2022** yillarda jami **130 ming**dan ortiq fuqaro Umra ziyoratini amalga oshirdi. Xuddi shuningdek, boshqa din vakillarining Isroil, Gretsiya va Rossiyada joylashgan diniy qadamjolarga ziyoratlari amalga oshirilib kelinmoqda.

Jumladan, joriy yilning aprel oyida pravoslav dini vakillarining Isroilning Quddus shahriga Pasxa munosabati bilan O'zbekistonga **"Muqaddas olov"** ni olib kelish uchun safarlarini tashkil etish rejalashtirilmoqda.

Истибдод даврида собиқ Иттифоқ бўйича муқаддас ҳаж сафарига бориш 10-15 нафар кишига, шу жумладан, Ўзбекистондан 3-4 нафар одамга насиб этар эди. Мустақиллик йиллари юз минглаб фуқаро «ҳаж» ва «умра» амалларини адо этдмоқдалар.

Минглаб христиан ва яҳудий динларига мансуб фуқаролар Россия, Исроил, Греция каби мамлакатларда жойлашган муқаддас қадамжоларга зиёратга бориб келдилар.



XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZLARI FAOLIYATI

Bugungi kunda O'zbekistonda Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy kabi buyuk allomalarning hayoti va ilmiy merosini o'rganishga ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot markazlari ham faoliyat olib bormoqda.



Imom Buxoriy markazi tomonidan xalqaro aloqalarni rivojlantirish maqsadida **2017-2021** yillar davomida **33** ta Memorandum, **12** ta xalqaro darajadagi uchrashuv, seminar trening, simpozium, forum va davra suhbatlari, **21** ta xalqaro konferensiya, **46** ta xalqaro ilmiy onlayn seminar, **6** ta xalqaro onlayn ko'rgazmalar tashkil etildi.

"Imom Buxoriy izidan", "Islomda ijtimoiy illatlar muolajasi", "Ilmdan boshqa najot yo'q" va "Ota-ona – hikmat, farzand – chiroq" risolalari, Abu Mansur Moturidiyning "Ta'vilot al-Qur'on" asari **30**-juzi nashr etildi.



Imom Termiziy markazi tomonidan **2017-2021** yillar davomida **52** ta kitob Imom Termiziy va termiziy allomalarning merosiga oid ilmiy va ommabop kitoblar nashr qilindi, **13** ta kitob nashrga tayyorlandi.



Imom Moturidiy markazi tomonidan **2021-2022** yillar davomida ilmiy-tadqiqot yo'nalishida buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosiga oid **4** ta kitob, **17** ta risola tayyorlandi. Imom Moturidiyning "Ta'vilotul Qur'on" asari **29-28-27-26** juzlari, Mulla Ali Qoriyning "Sharh al-fiqh al-akbar" asari, Burhoniddin Marg'inoniyning "Hidoya" asari o'zbek tiliga tarjima qilindi. **10** ta alloma hayoti va ilmiy merosiga bag'ishlangan "Buyuk ajdodlarimiz" hamda Imom Moturidiyning hikmatlari jamlangan "Ta'vilotdan durdonalar" nomli xalqchil risolalar chop etildi.

Markaz kutubxona fondini boyitish maqsadida faoliyat yo'nalishiga doir **44 000** ga yaqin kitob jamlangan bo'lib, ularning **7 000** tasi elektron va **967** tasi audio kitoblardan iborat.

DINIY TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATI

2017-2022 yillarda diniy ta'lim tizimi ham tubdan takomillashtirildi, yangidan-yangi ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Hozirgi kunda respublikamizda dunyoviy va diniy ilmlarni puxta egallagan yetuk mutaxassislarni tayyorlashga ixtisoslashgan **O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi** hamda **Toshkent islom instituti**, **"Mir Arab"** oliy madrasasi, **Hadis ilmi maktabi**, **10 ta** o'rta maxsus islom bilim yurti va **pravoslav va protestant** seminariyalari faoliyat yuritmoqda.

Hududlarda maxsus ilmiy maktablar ham tashkil etilgan bo'lib, ularda islom dini ta'limotlari o'rganiladi, jumladan:





Fuqarolarning maishiy diniy
ehtiyojlarini qondirish maqsadida
Qur'oni karim va tajvid
kurslari faoliyati yo'lga qo'yildi



“Qur'oni karim va tajvid” o'quv kurslarini
hozirga qadar **23000** nafardan
(**12000** erkak, **11000** ayol) ziyod
fuqarolarimiz muvaffaqiyatli tamomladi.

Hozirda **3464** nafar fuqarolar navbatdagi bosqichda tahsil olmoqda.

**ЭЪТИБОРИНГИЗ УЧУН
РАХМАТ**